1. 03

# Ш А Р Т Н О М А № 016

Андижон шахар 10.01.2022

Бизлар ким куйида имзо чекиб ўзаро шартнома тузувчилар бир томондан «ТЕХНОПОЛ ЭЛИТ»МЧЖ номидан рахбар Н.Косимов келгусида **“ Таъминотчи”** деб номланган ва иккинчи томондан Мархамат ТТБ номидан рахбар З. Унаров келгусида **“ Харидор”** деб номланиб, куйидаги мазмунда шартномани туздик.

## 1 . Шартнома мохияти

1.1 “ Таъминотчи” “Харидор”нинг талабномаси билан ишлаб чикарган махсулотларини сотади.”Харидор” эса олган махсулотлари учун туловни “Таъминотчи”нинг банкидаги тегишли хисоб ракамига келишилган муддатда утказиб беришни уз зиммасига олади

| т/р | Товар (иш, хизмат)лар номи | Ўлчов бирлиги | Микдори | Нархи | Етказиб бериш киймати | ҚҚС | | Етказиб беришнинг ҚҚСни хисобга олган холда киймати |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | ставкаси | суммаси | |
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
| 1 | Мега десм бест 0.5литр | литр. | 30 | 39600 | 1188000 | 15 | 178200 | 1366200. |
| 2 | АБК - экстра | литр. | 21. | 49760 | 1044960 | 15 | 156744 | 1201704. |
| | ФС-1 | литр | 12 | 174080 | 2088960 | 15. | 313344 | 2402304. |
| | Глифосат калций 65% | кг | 107. | 32620 | 3490340 | 15. | 523551 | 4013891. |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | Жами тўлашга: | | | | | | | 8984099 |

Сумма: 8984099 (Саккиз миллион тўққиз юз саксон тўрт минг тўқсон тўққиз сўм.)

## 2. Махсулотнинг сифати

2.1. Етказиб бериладиган махсулот сифати Узбекистон Республикасининг амалдаги конунчилигига асосан етказиб бериладиган товар ва моддий кийматликлар учун белгиланган ГОСТ стандартлари мос келиши шарт.

## 3. Хисоб-китоб килиш тартиби

3.1. Хисоб-китоб “Харидор” томонидан “Таъминотчи” пул утказиш йули билан амалга оширилади.

3.2. Шартнома кучга кириб, тегишли Газначилик булимидан руйхатдан утиб,маблаг 5 банк иш кунида “Харидор” етказиб бериладиган махсулотлар умумий суммасининг 30 % (фоиз)ини яъни 2695230 (Икки миллион олти юз тўқсон беш минг икки юз ўттиз сўм.) тарикасида “Таъминотчи” нинг хисоб ракамига ўтказиб беради.

3.3 “Харидор” томонидан 30% (фоизи) олдиндан тулов амалга оширилгандан сунг “Таъминотчи” 3 банк иш куни давомида мазкур шартномада курсатилган микдорда ва нархларда давлатстандарти талабларига жавоб берадиган, махсулотларни “Харидор”га етказиб беради.

3.4 Колган охирги 70% (фоизи) ни “Таъминотчи” томонидан етказиб берилган махсулотлар хисоб варака фактуралари асосида 30 банк иш кунида утказиб берилади. 6288869

3.5. Махсулотларни етказиб бериш харажати “Таъминотчи” хисобидан копланади

## 4. Жўнатиш ва қабул килиш шартлари.

4.1 Сотиб олинган товарларни жунатиш “Таъминотчи” томонидан амалга оширилади, етказиб бериш санаси бўлиб, товарнинг “Таъминотчи” омборидан юбориш санаси хисобланади,товарни кабул килиш,”Харидор” томонидан уни микдори,сифати ва руйхати хисоб-фактура асосида амалга оширилади

## 5. Томонларининг мажбуриятлари

5.1. Томонлар бошка томоннинг хужжатини расмийлаштирилиши ёки нотўгри расмийлаштириш учун жавобгар эмасдирлар

5.2. “Таъминотчи” хукуклари ва мажбуриятлари:

-берилган буюртманомага мувофик етказиб берилган махсулотни кабул килишда асоссиз рад этилиши натижасида етказилган зарар коплашини талаб килиш хукукига эга.

Агар махсулотни етказиб бериш жараёнида “Таъминотчи” шартнома шартлари ва норматаваларда чекинишга йул куйган булса ,“Харидор”нинг талаби билан аникланган барча камчиликларни 3 кун муддатда бепул тузатиб беришга мажбурдур. “Харидор” “Таъминотчи” томонидан етказиб берилган махсулот сифати курсатилган баённоманинг тўгрилигини 5 кун мобайнида текшириб олиш мажбуриятини ўз зиммасига олади

5.3 “Харидор” хукуклари ва мажбуриятлари.

Агарда “Харидор” “Таъминотчи” томонидан етказиб берилган махсулотни саклаш мобайнида йўл кўйган камчиликлар

натижасида махсулот сифати бузилса, "Таъминотчи" жавобгарликни ўз зиммасига олмайди .

Камчиликларни бепул бартараф этилишини ёки камчиликлар тугриланиш харажатларини коплашини талаб килишга: Мазкур шартнома шартлари бажарилмаганлиги натижасида етказиб зарарни коплашини "Таъминотчи"дан талаб килиш хукукига эга.

## 6. Томонларнинг мулкий жавобгарлиги

6.1 Шартнома мажбуриятларини тулик ёки кисман бажармаганликлари учун томонлар Узбекистон Республикасининг "Хужалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-хукукий базаси тугрисида"ги конуни талаблари доирасида мулкий жавобгардирлар.

6.2. "Таъминотчи" жавобгарлиги

6.2.1 "Таъминотчи"нинг айби билан товарларни етказиб бериш муддатлари кечиктириб юборилса "Таъминотчи" томонидан кечиктирилган хар бир кун учун мажбурият бажарилмаган кисмнинг 0.5% миқдорида пеня тулайди, бирок бунда пенянинг умумий суммаси етказиб берилмаган товар суммасини 50 фоиздан ошиб кетмаслиги керак.

6.3 "Харидор"нинг жавобгарлиги:

6.3.1. "Харидор"нинг айби билан етказиб берилган товарлар хакини уз вактида туламаса, "Харидор" томонидан кечиктирилган хар бир кун учун кечиктирилган тулов суммасининг 0.4 фоиз микдорида, аммо кечиктирилган тулов суммасининг 50 фоиздан ортик булмаган микдорда пеня тулайди.

6.4 Шартноманинг 2-бандига асосан "Таъминотчи" томонидан сотилган махсулот сифатсизлиги тегишли хужжатлар билан 3 кун ичида тасдикланса,у холда "Таъминотчи" сифатсиз махсулотни сифатли махсулот билан алмаштириб беради, ва бу билан боглик барча харажатларни ўз зиммасига олади.

6.5 Томонлар узларига юклатилган мажбуриятлардан узларига боглик булмаган куйидаги форс- мажор холатларида кисман ёки тулик озод этиладилар; ёнгин,табиий офатлар,харбий харакатлар,блокадалар,импорт ва экспорт килишга такиклар.

## 7. Низоларни хал этиш.

7.1 Шартнома мажбуриятлардан келиб чикадиган барча низолар,томонлар уртасида узаро келишилган холда хал этилади.
Низолар пайдо булганда томонлар ёзма равишда огохлантириш хати берадилар. Огохлантириш хатини жавоб бериш муддати 10 кун.

7.2. Хал этилмаган низолар Иктисодий судда куриб чикилади. Иктисодий суднн карори хал этувчи хужжат хисобланади

## 8. Форс - Мажор.

8.1 Томонларга боглик булмаган холатлар ёнгин,сув тошкини,шу каби бошка холатларда хамда Узбекистан Республикаси Президенти фармонлари ва Вазирлар Махкамасининг карорлари ,агар тегишли хужжатлари билан тасдикланган такдирда мажбурият бажарилмаганлиги учун томонлар жавобгарлигидан озод этилади

8.2. Юкоридаги холатлар юзасидан дархол хабарнома юборилиши мажбурийдир.

## 9. Шартнома муддати

9.1. Шартнома худудий газначилиги булимида рўйхатдан утказилгандан сунг кучга киради ва 31 декабр 2022 йилгача амал килади. Шартномага асосан томонларнинг уз зиммаларига олган мажбуриятлари бажарилмай колса, шартнома мажбуриятлар бажарилгунча амал килади.

## 10. Умумий холатлар

10.1. "Харидор" "Таъминотчи"га хар ойнинг 5 санасигача шу ойда зарур буладиган махсулотнинг буюртма руйхатини такдим этади.Бунда товарнинг номи,микдори курсатилиши шарт."Харидор"га "Таъминотчи"томонидан прайс листлар такдим этилади, прайс листга асосан "Харидор"нархларга алохида эътибор берган холда,танлов даражасига асосланиб 1 ойлик эхтиёж учун зарур булган барча махсулотларни сотиб олади

10.2. Шартномага киритилиши лозим булган барча узгартириш ва кушимчалар факат ёзма тартибда амалга оширилади ва томонлар имзоланиб, мухрлагандан сунг тегишли газначилик булимидан руйхатга олингандан кейин асосий шартноманинг ажралмас кисми

10.3. Ушбу шартномага оид лекин шартномага киритилмасдан колган барча холатлар Узбекистан Республикасининг амалдаги конунлари асосида хал этилади.

## 11. Қўшимча шартлар

11.1. Махсулотни ишлаб чикариш жараёнида ишлатиладиган хом ашё нархлари ўзгариши товар нархини ўзгаришига сабаб бўлиши мумкин.

## 12.Томонларнинг юридик манзиллари ва реквизитлари:

"ТАМИНОТЧИ"

| | |
|---|---|
| Номи: | "ТЕХНОПОЛ ЭЛИТ" МЧЖ |
| Адрес: | Андижон шахар Ахмадбек хожи кучаси 86 уй |
| Х/Р: | 2020 8000 0005 1247 1001 |
| ИНН: | 303 477 725 ОКОНХ: 19310 |
| МФО: | 00083 |
| Банк: | «ХАМКОРБАНК» амалиёт бошкармаси |

"ХАРИДОР"

| | |
|---|---|
| Номи: | Марҳамат ТТБ Марҳамат ш. Ипак йўли кўчаси 1-уй |
| Адрес: | х/р. 100022860003... ИНН. 200226456 ОКЭД 91511. |
| Х/Р: | 93 Рес. Ғаз. ш. Марказий Банк |
| ИНН: | Вод ғазначилик бўлим |
| МФО: | [illegible] 500100001010 |
| Банк: | [illegible] 201122919 МФО 00014 |

Рахбар ______________ Н. Косимов
(имзо)

Рахбар: ______________ З.Умаров

Хукукшунос : ______________

Ш.х жумладан қўшимча солиқ қиймати билан ққс суммаси 1123491 сўм. жами сумма 8989099 сўмни ташкил қилади

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: FD3601166688

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

**№ VS86258232**

1. Loyihaning turi

**Shartnoma**

2. Loyihaning nomi

**«Texnopol elit» MCHJ 8989099 so'mlik shartnoma**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

**Marhamat tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan 11.01.2022 yil kuni taqdim qayta etilgan.**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

12.01.2022

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi**

**Bosh yuriskonsulti** **B.I.Aliyev**